An'anaviy moliyaviy audit, avvalo, korxonaning barcha soliq qonunbuzarliklari va yashirin soliq majburiyatlarini aniqlashga emas, balki umuman moliyaviy hisobotning ishonchligi to'g'risida fikr bildirishga qaratilgan. Tekshiruvning tanlab o'tkazilishi va muhimlik darajasining qo'llanilishi hisobotga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan ayrim soliq xatarlarining alohida tahlil qilinishini talab etishi mumkin. Shuning uchun ehtimoliy qo'shimcha hisoblashlar, penyalari, jarimalar va nizoli soliq operatsiyalarini kompleks baholash uchun ixtisoslashtirilgan soliq Due Diligence usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

AQShda soliq Due Diligence aksiyalarni sotib olish va aktivlarni sotib olish o'rtasidagi tanlov bilan chambarchas bog'liq [2]. Germaniyada soliq Due Diligence sotib olinayotgan kompaniyaning soliq hisobotlari va majburiyatlarini har tomonlama tekshirishdir [3]. Buyuk Britaniyada soliq Due Diligence biznesni sotib olishda (M&A), kompaniyalarni qayta tashkil etishda yoki aktivlarni sotishga tayyorgarlik ko'rishda (vendor due diligence) muhim bosqich hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi yashirin soliq majburiyatlarini aniqlash, kompaniyaning Buyuk Britaniya Soliq xizmati (HMRC) oldidagi tarixiy intizomini baholash va bitim yakunlangunga qadar xatarlarni minimallashtirishdan iborat [4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda soliq tekshiruvini mustaqil professional xizmat sifatida joriy etish korxonalarning haqiqiy va potensial soliq xatarlarini har tomonlama aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, investitsiya va kredit operatsiyalarini kengaytirish sharoitida bunday xizmat mulkdorlar, investorlar va banklarga ehtimoliy qo'shimcha to'lovlar, penyalari, jarimalar va soliq nizolari haqida xolis ma'lumot olish imkonini beradi. Bu biznes shaffofligini oshirish, soliq qonunchiligiga rioya etilishini mustahkamlash hamda boshqaruv, investitsiya va kredit qarorlarining asosligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda soliq Due Diligence asosan qo'shib yuborish, sotib olish va investitsiyalarni jalb qilishda korxonani kompleks tekshirishning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Uning asosiy maqsadi bajarilmagan soliq majburiyatlari, nizoli soliq pozitsiyalari va biznes qiymatiga hamda tuzilayotgan bitim shartlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashdan iborat. A. M. de Oliveira Neto soliq Due Diligence'ni birlashish va qo'shib olishlarda risklarni boshqarishning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqadi. Muallif ta'kidlashicha, tekshiruv nafaqat soliq qonunchiligiga rioya etilishini, balki aniqlangan qoidabuzarliklarning ehtimoliy ma'muriy va sud oqibatlarini ham qamrab olishi kerak. Bunday tekshiruv natijalari xaridorga sotib olinayotgan kompaniyaning yashirin majburiyatlarini baholash va bitim shartlarini aniqlashtirish imkonini beradi [5].

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlar va professional uslubiyotlarda soliq tekshiruvining uchta asosiy elementi ajratib ko'rsatiladi:

- soliq deklaratsiyalari va birlamchi hujjatlarni to'plash va tahlil qilish;
- rahbariyat va mas'ul mutaxassislar bilan suhbat o'tkazish;
- aniqlangan soliq xatarlarini miqdoriy baholash.

Korxonaning soliq tarixi, tartibga solinmagan nizolar, soliq imtiyozlarining to'g'ri qo'llanilishi, bog'liq tomonlar bilan operatsiyalar, transfert narx shakllanishi va yashirin soliq majburiyatlarining yangi mulkdorga o'tish ehtimoliga alohida e'tibor qaratiladi. Tekshiruv natijalari korxona narxiga, bitim shakliga, sotuvchining kafolatlariga va ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash shartlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin [6].

O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida "Soliq Due Diligence" atamasining nazariy va uslubiy jihatlarini yanada kengroq tadqiq etish imkoniyatlari mavjud. Mahalliy mualliflarning tadqiqotlari asosan soliq nazorati, soliq auditi, tavakkalchilikka yo'naltirilgan soliq ma'muriyatchiligi va soliq tizimini raqamlashtirishga bag'ishlangan. Xususan, N. A. Artikov kameral va sayyor soliq tekshiruvlari hamda soliq auditini tayinlashda xavf-xatar tahlilini qo'llashga asoslangan O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligining yangi arxitekturasini shakllantirishni ko'rib chiqadi. Bu soliq nazoratida xavf-xatarlarni baholashga asoslangan yondashuvning rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi [7]. Bazarov K. T. soliq xavfini boshqarishni soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishning sharti sifatida o'rganib, xavflarni tasniflash, ularning yuzaga kelish ehtimolini baholash va oldini olish choralarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi [8]. Amaliyotda O'zbekistonning ayrim auditorlik va konsalting tashkilotlari korxonaning soliq holatini kompleks baholash va ehtimoliy qo'shimcha hisob-kitoblarni aniqlashni o'z ichiga olgan soliq Due Diligence xizmatlarini taklif etmoqda. Binobarin, ushbu xizmatning amaliy qo'llanilishi uning ilmiy-uslubiy asoslarini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy adabiyotlarda investitsiya bitimlarida soliq Due Diligence'ning roli yetarlicha batafsil yoritilgan bo'lib, tadqiqotlarning asosiy qismi yirik kompaniyalar va M&A bitimlariga qaratilgan.

Shunday qilib, aniqlangan ilmiy yo'nalish O'zbekiston Respublikasi sharoitiga moslashtirilgan, tartib-taomillar ketma-ketligi, soliq xavflari tasniflagichi, tekshiruv ro'yxati, baholash matritsasi va standartlashtirilgan soliq xulosasini o'z ichiga olgan soliq Due Diligence metodologiyasini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda quyidagi usullardan foydalanilgan: tizimli va qiyosiy tahlil; normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish; xorijiy tajribani o'rganish; soliq tavakkalchiliklarini guruhlash va tasniflash; ekspert bahosi; tavakkalchilikka asoslangan yondashuv; moliyaviy va soliq hisobotlarini tahlil qilish; koeffitsiyentli va hujjatli tahlil usullari; auditorlik amaliyotining natijalarini umumlashtirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq Due Diligence xo'jalik yurituvchi subyektning soliq holatini kompleks mustaqil tekshirish bo'lib, u haqiqiy va potensial soliq majburiyatlarini aniqlashga, ularning yuzaga kelish ehtimolini baholashga hamda mulkdorlar, investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun mumkin bo'lgan moliyaviy oqibatlarni aniqlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida soliq Due Diligence'ni qo'llash quyidagi shart-sharoitlarga bog'liq:

Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish. Elektron hisobvara-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikasi va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar almashinuvi soliq organlariga soliq hisoboti va korxonaning haqiqiy muomalalari o'rtasidagi tafovutlarni tezroq aniqlash imkonini beradi.

Tavakkalchilikka yo'naltirilgan soliq nazoratiga o'tish. Tekshiruvlar uchun soliq to'lovchilarni xavf-xatarlarni tahlil qilish asosida tanlash noodatiy xo'jalik muomalalari, asossiz imtiyozlar, soliq bazasini pasaytirish va boshqa qoidabuzarliklarni aniqlash imkoniyatini oshiradi.

Xo'jalik muomalalarining murakkablashuvi. Tashqi iqtisodiy faoliyat, elektron savdo, aloqador tomonlar bilan muomalalar va transfert narx shakllanishining rivojlanishi soliq risklarining yangi turlarini yuzaga keltiradi.

Investitsiya va kredit bitimlarining o'sishi. Banklar va investorlarga nafaqat korxonaning joriy soliq qarzdorligi, balki ehtimoliy qo'shimcha to'lovlar, boqimandalar, jarimalar va soliq nizolari haqida ham ishonchli ma'lumotlar zarur.

Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish. Ichki nazoratni yanada takomillashtirish, kadrlar resurslaridan samarali foydalanish va soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarga o'z vaqtida moslashish kichik va o'rta biznes subyektlarida soliq hisobining aniqligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

An'anaviy moliyaviy auditning o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy audit, umuman, hisobotning ishonchligini tasdiqlashga qaratilgan bo'lib, barcha yashirin soliq xatarlarini majburiy aniqlashni nazarda tutmaydi.

Soliq qoidabuzarliklarining oldini olish zarurati. Soliq Due Diligence tizimi davlat tekshiruvi, investitsiya bitimi, biznesni sotib olish yoki yirik kredit olish uchun murojaat qilishdan oldin mavjud masalalarni aniqlash imkonini beradi.

Professional xizmatlar bozorining rivojlanishi. Auditorlik va konsalting tashkilotlari faoliyatining kengayishi soliq Due Diligence'ning mustaqil xizmat sifatida shakllanishi uchun tashkiliy imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, soliq tekshiruvlari O'zbekistonda soliq xatarlarini erta aniqlash, biznes shaffofligini oshirish hamda kredit, investitsiya va boshqaruv qarorlarining asosligini ta'minlovchi muhim preventiv vositaga aylanishi mumkin.

Uning bu boradagi mavjud xizmat turlaridan farq qiluvchi auditorlik professional xizmatlarining yangi turi sifatida kirib kelayotganligini quyidagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

1-jadval

Soliq Due Diligence'ning shunga o'xshash xizmat turlaridan farqi tahlili¹

Mezon	Soliq tekshiruvi	Soliq auditi	Soliq Due Diligence
Asosiy maqsad	Qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish	Soliq hisob-kitoblarning to'g'riligini tekshirish	Haqiqiy va yashirin soliq xatarlarini aniqlash
Tashabbuskor tomon	Soliq idorasi	Rahbariyat yoki mulkdor	Investor, bank, xaridor, mulkdor
Xususiyati	Davlat nazorati	Professional tekshiruv	Xavf-xatarga asoslangan kompleks diagnostika
Natijani rasmiylashtirish	Tekshirish dalolatnomasi	Auditorlik yoki maslahat hisoboti	Soliq xulosasi va xavf-xatar xaritasi
Yo'naltirilganlik	Avvalgi qoidabuzarliklar	Hisob-kitoblarning ishonchligi	O'tmishdagi, hozirgi va ehtimoliy oqibatlar

1 Muallif ishlanmasi



Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tahlil obyektlari (solliqlar va majburiyatlar) o'xshashligiga qaramay, an'anaviy solliq auditi va solliq Due Diligence maqsadlari, uslubiylati va iqtisodiy mazmuniga ko'ra o'zaro farq qiladi.

Moliyaviy hisobot auditi doirasida solliqlar solliq nazorati obyekti emas, balki xatolar, qonunchilik yoki boshqaruv qarorlarining murakkabligi tufayli jiddiy buzilishlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy hisobot elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Auditorning maqsadi solliq majburiyatlari va aktivlari to'g'ri tan olinganligi, baholanganligi va ochib berilganligi hamda hisobot, umuman olganda, xo'jalik muomalalarining solliq oqibatlarini ishonchli aks ettirgani to'g'risida yetarlicha ishonch hosil qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida solliq auditi solliq idoralari tashabbusi bilan amalga oshiriladigan nazorat turlaridan biri bo'lib, unda muayyan davr uchun solliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashning to'g'riligi tekshiriladi. Bu boradagi huquqiy asos O'zbekiston Respublikasi Solliq kodeksining "Solliq tekshiruvlarining turlari" deb nomlangan 137-moddasining 3-bandida keltiriladi. Solliq auditi solliq to'lovchilarning (solliq agentlarining) yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub solliq to'lovchiga (solliq agentiga) nisbatan o'tkaziladi. Solliq auditi o'tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning solliq hisobotiga solliq to'lovchi tomonidan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi [9]. Ya'ni O'zbekistonda an'anaviy solliq auditi davlat nazoratining tarkibiy qismi hisoblanib, solliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan hamda majburiy nazorat xususiyatiga ega.

Solliq Due Diligence solliq xatarlarini boshqarishning preventiv vositasi hisoblanadi. Uning joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi; xizmat, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar, investorlar va banklar uchun muhim; uning rivojlanishi uslubiy ta'minot va standartlashtirishni talab qiladi; taklif etilayotgan model O'zbekistondagi mavjud auditorlik va maslahat xizmatlari tizimini to'ldirishi mumkin.

Shu bois tadqiqotchi O'zbekiston audit xizmatlari milliy bozoriga yangi xizmat turi hisoblangan solliq Due Diligence'ni joriy qilish uchun quyidagi harakatlarni amalga oshirishni tavsiya etadi:

1. Solliq Due Diligence tekshiruvini o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.
2. Xizmat yakuniga ko'ra taqdim qilinadigan xulosaning namunaviy tuzilmasini tasdiqlash.
3. Solliq risklarining milliy klassifikatorini shakllantirish.
4. Tekshiruvning namunaviy chek-ro'yxatini ishlab chiqish.
5. Tavakkalchilikka yo'naltirilgan balli baholashni joriy etish.
6. Solliq Due Diligence bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish.
7. Banklarga yirik kredit va investitsiya bitimlarida solliq xulosasini hisobga olishni tavsiya etish.
8. Axborotning maxfiyligini va ijrochining kasbiy mas'uliyatini ta'minlash.

Bu xizmat turini ko'rsatishda auditorlardan tajriba, tahliliy fikrlash va to'g'ri talqin qilish hislatlari talab qilinadi. Chunki ma'lumotlarni bir-biriga qiyosiy va chuqur tahlil asosida solishtirish ushbu xizmat turidan kutilgan natijaga erishishda muhim ahamiyatga ega. Uslubiyotni amalga oshirishda, asosan, tahliliy tadbirlar qo'llaniladi. Solliq yukini bir necha davr davomida solishtirish, uni tarmoq ko'rsatkichlari bilan taqqoslash va keskin og'ishlarni tahlil qilish orqali solliq turlari bo'yicha risklar aniqlanadi.

Solliqlar bo'yicha aniqlangan risklarning umumiy darajasi alohida olingan solliqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan risklar yig'indisiga teng.

Xalqaro amaliyotda jami solliq riski darajasi (image) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$SR_i = P_i \times I_i \quad [10] \text{ bu yerda,}$$

P_i - solliq riskining yuzaga kelish ehtimoli (1–5 ball oralig'ida;

I_i - riskning ta'sir kuchi (1–5 ball oralig'ida)

Xavf-xatarlarni boshqarish kontekstida odatda ikkita asosiy ko'rsatkich baholanadi:

Riskning yuzaga kelish ehtimoli (P_i) — solliq idorasi tomonidan qoidabuzarlikni aniqlash, qo'llanilgan yondashuvga e'tiroz bildirish va solliqlarni qo'shimcha hisoblash imkoniyati.

Ehtimollik qo'shimcha solliq majburiyatlarining yuzaga kelishi qanchalik real ekanligini ko'rsatadi. Uni aniqlashda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- solliq, moliyaviy va statistik hisobotlar o'rtasida tafovutlarning mavjudligi;
- solliq deklaratsiyalaridagi xatolar;
- boshlang'ich hujjatlarining mavjud emasligi yoki tegishli tartibda rasmiylashtirilmaganligi;
- solliq imtiyozlaridan foydalanishning asoslanganligi;
- kontragentlar bilan xo'jalik muomalalarining xususiyatlari;
- elektron hisobvara-q-fakturalardagi tafovutlar;
- aloqador tomonlar bilan bitimlar;
- narxlarning bozor darajasidan chetga chiqishi;
- ilgari aniqlangan qoidabuzarliklarning mavjudligi;
- sud va solliq nizolari;



• qo'llaniladigan soliq me'yorlarining murakkabligi va ularni talqin qilish bilan bog'liq jihatlar;
 • soliq ma'muriyatchiligidan raqamli tizimlari tomonidan qoidabuzarliklarni aniqlash imkoniyati.
 Masalan, agar korxona soliq imtiyozini qo'llagan bo'lsa-yu, lekin belgilangan shartlarning bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lmasa, soliqni qo'shimcha hisoblash ehtimoli yuqori bo'ladi.

Shunday qilib, ehtimollik mumkin bo'lgan buzilishning miqdorini emas, balki buzilish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sharoitlarni tavsiflaydi.

Riskning yuzaga kelish ehtimoli tahlili 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval
Riskning yuzaga kelish ehtimoli tahlili²

Ball	Ehtimollik darajasi	Ehtimollikning yuz berish tavsifi
1	Juda past	Deyarli yuz bermaydi
2	Past	Bo'lishi mumkin, lekin kamdan-kam
3	O'rta	Bo'lishi mumkin
4	Yuqori	Bo'lish ehtimoli yuqori
5	Juda yuqori	Deyarli aniq sodir bo'ladi

Xavfning ta'sir (oqibat) darajasi (image) — agar bu xavf yuzaga kelsa, uning oqibatlari qanchalik jiddiy bo'lishini ko'rsatadi. U nafaqat asosiy soliq summasini, balki tegishli yo'qotishlarni ham o'z ichiga oladi:

$$I_i = T_i + PEN_i + F_i + C_i,$$

Bunda:

T_i - qo'shimcha hisoblangan soliqning ehtimoliy summasi;

PEN_i - penyalari;

F_i - moliyaviy sanksiyalar va jarimalar;

C_i - boshqa oqibatlar, shu jumladan sud xarajatlari va qoidabuzarliklarni bartaraf etish xarajatlari.

Miqdoriy ta'sirdan tashqari, sifat oqibatlarini ham hisobga olish zarur:

- likvidlik va to'lov qobiliyatiga ta'siri;
- kredit shartnomasi shartlariga rioya etilishiga ta'siri;
- sotib olinayotgan biznes qiymatiga ta'siri;
- bank tomonidan kredit ajratish to'g'risidagi qarorga ta'siri;
- investitsiya bitimi shartlarining o'zgarishi;
- sud nizolarining yuzaga kelishi;
- ishchanlik obro'siga ta'siri;
- KOB faoliyatining uzluksizligiga ta'siri.

Kichik va o'rta korxonalar uchun hatto nisbatan kichik buzilish ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki bunday korxonalarning faoliyat ko'lam va moliyaviy barqarorlik zaxirasi odatda cheklangan bo'ladi.

Riskning ta'sir kuchining qiyosiy tahlili 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval
Risk ta'sir kuchining qiyosiy tahlili³

Ball	Ta'sir darajasi	Ta'sir natijasi
1	Juda past	Faoliyatga deyarli ta'sir qilmaydi
2	Past	Biroz kechikish yoki qo'shimcha xarajatlar
3	O'rta	Qo'shimcha resurslar yoki vaqt talab etiladi
4	Yuqori	Muhim moliyaviy yoki tashkiliy yo'qotishlar
5	Juda yuqori	Jiddiy zarar, loyihaning to'xtatilishi yoki sezilarli yo'qotishlar

Riskning yuzaga kelish ehtimoli bilan uning ta'sir kuchi o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

Bunda, bizningcha, ikki holat alohida e'tiborni talab qiladi. Birinchisi — nisbatan kichik ta'sir bilan yuqori ehtimollik. Masalan, elektron hisobvara-fakturalarda muntazam ravishda yo'l qo'yiladigan xatolar alohida olinganda ahamiyatsiz bo'lishi mumkin, ammo ularning umumiy ta'siri sezilarli qo'shimcha hisob-kitoblarga olib kelishi mumkin.

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi



4-jadval

Riskning yuzaga kelish ehtimoli bilan uning ta'sir kuchi o'rtasidagi bog'liqlik tahlili⁴

Ehtimollik	Ta'sir	Soliq tavakkalchiligi tavsifi	Due Diligence natijalari asosida qaror qabul qilish
Past	Past	Arzimas	Kuzatish va umumiy tavsiyalar
Yuqori	Past	Tez-tez amalga oshiriladigan, ammo kichik	Hisobotlarni to'g'rilash va soliq nazoratini kuchaytirish
Past	Yuqori	Ehtimoli kam, ammo potensial ahamiyatli	Maxsus tekshiruv va soliq xulosasida ochib berish
Yuqori	Yuqori	Yuqori e'tibor talab qiluvchi vaziyat	Tezkor choralar ko'rish, zaxira yaratish yoki bitim shartlarini qayta ko'rib chiqish

Ikkinchisi — yuqori ta'sir bilan past ehtimollik. Masalan, yirik bir martalik bitim bo'yicha nizoli soliq pozitsiyasi darhol aniqlanmasligi mumkin, biroq uni nizolash korxonaning moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday risk ehtimoli past bo'lgan taqdirda ham uni baholash va hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda soliq Due Diligence'ni qo'llashda ushbu ikki parametrdan foydalanish soliq qoidabuzarliklarining oddiy ro'yxatidan korxonaning soliq holatini xavf-xatarga yo'naltirilgan baholashga o'tish imkonini beradi.

Bu O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va elektron hisobvaraq-fakturalar, deklaratsiyalar va boshqa ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda solishtirish sharoitida ayniqsa dolzarbdir. Manfaatdor tomonlar uchun bunday baholash turli amaliy ahamiyatga ega (5-jadval).

5-jadval

Soliq Due Diligence ma'lumotlarining amaliy ahamiyati⁵

Foydalanuvchi	Baholash qiymati
Mulkdor	Xatolarni tuzatish va zaxiralarni yaratish zarurligini aniqlash
Bank	Yashirin soliq majburiyatlarining kredit qaytarilishiga ta'sirini baholash
Sarmoyador	Qo'yilmalarning xavfsizligi va daromadlilikini aniqlash
Biznes xaridori	Bitim narxi va sotuvchining javobgarlik shartlariga tuzatish kiritish

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasida soliq risklarini tasniflash, ularni balli baholash, risklar xaritasini shakllantirish hamda mulkdorlar, investorlar va kredit tashkilotlari uchun standartlashtirilgan soliq xulosasini tayyorlashni nazarda tutuvchi soliq Due Diligence'ni o'tkazishning tashkiliy-uslubiy modeli taklif etilgan.

Auditorlar uchun yangi xizmat turi sifatida tavsiya etilayotgan soliq Due Diligence soliq xatarlarini boshqarishning preventiv vositasi hisoblanadi. Uning joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Xizmat, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar, investorlar va banklar uchun muhim ahamiyatga ega. Uning rivojlanishi uslubiy ta'minot va standartlashtirishni talab qiladi.

Va nihoyat, taklif etilayotgan model O'zbekistondagi mavjud auditorlik va maslahat xizmatlari tizimini to'ldirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вычитаемые расходы [Elektron resurs]. – URL: https://nrm.uz/contentf?doc=693952_2_vychitaemye_rashody&products=4_prakticheskoe_.
2. What is Due Diligence? [Elektron resurs]. – URL: <https://immigrantinvest.com/ru/blog/what-is-due-diligence/>.
3. Tax Due Diligence [Elektron resurs]. – URL: <https://www.winhell.com/ru/tax-law/tax-due-diligence.html>.
4. Understanding Tax Due Diligence [Elektron resurs]. – URL: <https://blog.shorts.uk.com/understanding-tax-due-diligence>.
5. Oliveira Neto A. M. The Management of Tax Risks in Mergers and Acquisitions – The Importance of Tax Due Diligence [Elektron resurs]. – URL: <https://www.intechopen.com/chapters/75923>.

⁴ Muallif ishlanmasi

⁵ Muallif ishlanmasi



6. Tax Due Diligence: Analyzing the Tax Implications of a Merger // Thomson Reuters Tax & Accounting. – 11-07-2024.
7. Артиков Н. А. Новая архитектура налогового администрирования Узбекистана [Elektron resurs]. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/novaya-arhitektura-nalogovogo-administrirovaniya-uzbekistana> .
8. Базаров К. Т. Особенности управления налоговыми рисками в оптимизации налогового администрирования [Elektron resurs]. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-upravleniya-nalogovymi-riskami-v-optimizatsii-nalogovogo-administrirovaniya> .
9. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi [Elektron resurs]. – URL: <https://www.lex.uz/docs/4674902> .
10. ISO 31000:2018. Risk Management – Guidelines [Elektron resurs]. – URL: <https://certgroup.org/wp-content/uploads/2021/01/iso-31000-2018.pdf> .



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
